2024 YIL

13 IYUN

TA’LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: HOLATI VA ISTIQBOLLARI



respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami

Toshkent – 2024

“Ta’limda raqamli transformatsiya: holati va istiqbollari” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi
(2024-yil 13-iyun, Toshkent, O‘zbekiston)

УДК 370:681.142.37 ББК 74:73 Т 17

MAS`UL MUHARRIR:
Qirg‘izboyev A.K. - TDPU rektori, tarix fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI RAISI:
Abdullayeva B.S. - TDPU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, p.f.d., professor

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI:

Mamarajabov M.E.
DSc, professor
Umarova Z.A.
PhD, dotsent
Kudratov K.K.
PhD, dotsent v.b.
Samandarov J.I.
PhD, dotsent v.b.
Ahmedov A.M.
PhD, dotsent v.b.
Adinayev Sh.Sh.
dotsent v.b.
Nazarov I.U.
PhD, dotsent v.b.
Urinboyeva L.U.
dotsent

Tuxtamatov X.R.
dotsent
Yusupova G.Yu.
dotsent v.b.
Saidova Z.R.
tayanch doktorant
Mallayev R.Q.
PhD, dotsent v.b.
Mehmonov R.Yu.
katta o‘qituvchi
Mirzahmedova N.D.
katta o‘qituvchi
Bakiyeva F.R.
o‘qituvchi

TAQRIZCHILAR:
Ergashov M. – t.f.d., professor
Yuldashev U. – t.f.d., professor

To‘plam muharrirlari: Mamarajabov M.E., Umarova Z.A., Yusupova G.Yu, Kudratov K.K., Saidova Z.R.

Ushbu to‘plam Toshkent davlat pedagogika universitetida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug‘i asosida joriy yilning 13-iyun kuni Toshkent davlat pedagogika universiteti Matematika va ta’limda axborot texnologiyalari kafedrasi tomonidan tashkil etilgan “Ta’limda raqamli transformatsiya: holati va istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan iborat.

To‘plamda joy olgan tezislarda keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar javobgardirlar.

O‘QUVCHILARDA AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI MAFKURAVIY IMMUNITET VA “RAQAMLI FILTR” KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

С.Р. Абдалова
п.ф.н., доц.
Ўзбекистон Миллий университети

Аннотация: Мазкур мақолада замонавий ахборот маконида ўқувчи-ёшларни турли ахборот хуружлари ва манипуляциялардан ҳимоя қилишнинг долзарб масалалари ёритилган. Шунингдек, ўқувчиларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш, ахборотни танқидий баҳолаш ва «рақамли фильтр» кўникмаларини ривожлантиришнинг самарали педагогик технологиялари ҳамда амалий механизмлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: ахборот хуружлари, мафкуравий иммунитет, рақамли фильтр, медиасаводхонлик, танқидий тафаккур, педагогик технологиялар, ахборот хавфсизлиги.

В данной статье освещаются актуальные вопросы защиты учащейся молодежи от различных информационных атак и манипуляций в современном информационном пространстве. Также проанализированы эффективные педагогические технологии и практические механизмы формирования идеологического иммунитета, критической оценки информации и развития навыков «цифрового фильтра» у учащихся.

Ключевые слова: информационные атаки, идеологический иммунитет, цифровой фильтр, медиаграмотность, критическое мышление, педагогические технологии, информационная безопасность.

This article highlights pressing issues of protecting students from various information attacks and manipulations in the modern information space. It also analyzes effective pedagogical technologies and practical mechanisms for fostering ideological immunity, critically evaluating information, and developing "digital filter" skills among learners.

Keywords: information attacks, ideological immunity, digital filter, media literacy, critical thinking, pedagogical technologies, information security.

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni, shakli va vositalarini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli o‘quvchi kuchli axborot oqimi, real va virtual muhit o‘zaro tutashgan sharoitda voyaga yetmoqda. Shu bois bugungi pedagogika oldida o‘quvchilarda an’anaviy axloqiy ong bilan birga raqamli madaniyat, kiber-etika, axborot xurujlariga qarshi

mafkuraviy immunitet hamda “raqamli filtr” ko‘nikmalarini shakllantirish vazifasi turibdi. Chunki o‘quvchi internetdan foydalanish jarayonida bilim manbalari bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlar, reklama, blogerlik kontenti, yolg‘on xabarlar, manipulyativ ta’sirlar va zararli g‘oyalar bilan ham to‘qnashadi [1].

Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilar keng imkoniyatlarga ega bo‘lish bilan birga, kiberbulling, shaxsiy ma’lumotlarning oshkor bo‘lishi, dezinformatsiya, soxta xabarlar, onlayn firibgarlik, raqamli qaramlik va buzg‘unchi g‘oyalarning yashirin targ‘iboti kabi xavf-xatarlarga ham duch keladilar. Axborot xurujlari ko‘pincha ochiq tahdid shaklida emas, balki qiziqarli video, qisqa xabar, hazil, mem, reklama yoki mashhur shaxslar fikri orqali beriladi. Shu sababli o‘quvchi har qanday axborotni qabul qilishdan avval uni tahlil qilish, tekshirish, baholash va unga nisbatan mustaqil munosabat bildirishga o‘rgatilishi zarur [2].

Mazkur paragrafda o‘quvchilarda raqamli madaniyat, kiber-etika va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning refleksiv-faoliyatli yondashuvga asoslangan pedagogik texnologiyalari, metodlari hamda didaktik ta’minotini takomillashtirish masalasi asosiy yo‘nalish sifatida qaraladi. Refleksiv-faoliyatli yondashuvda o‘quvchi tayyor qoidalarni yodlab oluvchi emas, balki real yoki modellashtirilgan raqamli vaziyatlarni tahlil qiluvchi, muammoga yechim topuvchi, o‘z qarorini baholovchi va xatti-harakatiga ongli munosabat bildiruvchi faol subyekt sifatida shakllanadi [3].

Axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitet o‘quvchining zararli, yolg‘on, biryoqlama yoki manipulyativ axborotni tanib olishi, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida baholashi hamda unga nisbatan ongli qarshilik ko‘rsatish qobiliyatidir. “Raqamli filtr” esa ushbu immunitetning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, internetdagi ma’lumotni tekshirish, manbani aniqlash, fakt va fikrni farqlash, emotsional manipulyatsiyani sezish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va virtual muloqotda axloqiy me’yorlarga rioya qilishni anglatadi.

O‘quvchilarda “raqamli filtr” ko‘nikmalarini rivojlantirishda axborotni qabul qilish madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchi har qanday xabarni darhol haqiqat sifatida qabul qilmasdan, uning manbasi, muallifi, tarqatilish maqsadi, dalillari, tili, emotsional bosimi va ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilishga o‘rgatiladi. “Bu xabar kim tomonidan tarqatilgan?”, “Unda aniq dalil bormi?”, “Axborot meni nimaga ishontirmoqchi?”, “Bu xabar kimga foyda keltiradi?” kabi savollar o‘quvchining tanqidiy fikrlashini faollashtiradi [4].

Raqamli muhitda axloqiy ong va kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati shundaki, o‘quvchilar internetdan ta’lim olish, muloqot qilish, dam olish va o‘zini namoyon etish vositasi sifatida keng foydalanmoqda. Biroq yosh va psixologik xususiyatlari sababli ular har doim ham

axborotning to‘g‘ri-noto‘g‘riligini ajratish, virtual muloqotda chegarani saqlash, shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish yoki zararli kontentdan o‘zini cheklash imkoniyatiga ega bo‘lavermaydi. Shu bois pedagogik jarayonda raqamli savodxonlik bilan birga ma’naviy pozitsiya, axloqiy mas’uliyat va mafkuraviy barqarorlikni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Axborot xurujlari bilan ishlashda qoidalarni yodlatish, ogohlantirish yoki taqiqlash har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Chunki raqamli muhit tez o‘zgaradi, undagi xavflar ko‘pincha yashirin shaklda namoyon bo‘ladi. Shu sababli bu jarayonda muammoli ta’lim, keys-stadi, rolli o‘yin, bahs-munozara, loyiha metodi, veb-kvest, refleksiv kundalik va “raqamli vaziyat tahlili” kabi faol metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Ushbu metodlar o‘quvchini izlovchi, solishtiruvchi, baholovchi va qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Muammoli ta’lim va keys-stadi texnologiyalari o‘quvchilarda axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunda ijtimoiy tarmoqda tarqalgan shubhali xabar, noma’lum havola, kamsituvchi izoh, mashhur blogerning biryoqlama fikri, tarixiy voqeani buzib talqin qiluvchi post yoki milliy qadriyatlarni mensimaslikka undovchi kontent tahlil qilinadi. O‘quvchilar axborot manbasini aniqlash, uning g‘oyaviy yo‘nalishini baholash, zararli ta’sir belgilarini ajratish va o‘z munosabatini asoslashga o‘rgatiladi.

“Raqamli filtr” ko‘nikmalarini shakllantirishda “To‘xta - tekshir - bahola - qaror qil” algoritmidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. “To‘xta” bosqichida o‘quvchi axborotni darhol ulashmaslikka, “tekshir” bosqichida manba, sana, muallif va dalillarni solishtirishga, “bahola” bosqichida axborotning g‘oyaviy, axloqiy va ijtimoiy ta’sirini aniqlashga, “qaror qil” bosqichida esa uni qabul qilish, rad etish yoki tarqatmaslik haqida ongli xulosa chiqarishga o‘rganadi.

Raqamli axloq masalalari ham mafkuraviy immunitet bilan bevosita bog‘liq. Anonim muhitda qo‘pol so‘z ishlatish, boshqalarni kamsitish, plagiat, ruxsatsiz surat yoki video tarqatish, yolg‘on axborot ulashish kabi holatlar o‘quvchining axloqiy qarashlari bilan bog‘liq muammolardir. Shu sababli kiber-etika faqat texnik xavfsizlik qoidalari bilan cheklanmasdan, odob, hurmat, halollik, mas’uliyat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik va ma’naviy poklik kabi qadriyatlar bilan uyg‘un holda o‘rgatilishi lozim [5].

Refleksiv-faoliyatli yondashuv asosida pedagogik texnologiyalar diagnostik-motivatsion, tahliliy-anglash, faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholash bosqichlarida amalga oshiriladi. Dastlab o‘quvchilarning raqamli xavfsizlik, axborot tahlili, kiber-etika va mafkuraviy tahdidlarga munosabati aniqlanadi. Keyingi bosqichlarda ular soxta xabar, manipulyatsiya, kiberbulling va shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi kabi

tushunchalarni amaliy misollar asosida o‘rganadilar, keys, loyiha, bahs va rolli vaziyatlar orqali “raqamli filtr”ni qo‘llaydilar hamda yakunda o‘z qarorlari va raqamli mas’uliyatini tahlil qiladilar.

O‘quvchilarda axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitet va “raqamli filtr” ko‘nikmalarini rivojlantirish bosqichma-bosqich tashkil etilganda samarali natija beradi. Chunki raqamli muhitdagi xavflarni anglash, axborotni tahlil qilish, uni baholash va ongli qaror qabul qilish bir martalik tushuntirish orqali emas, balki izchil pedagogik ta’sir, amaliy mashg‘ulot va refleksiv tahlil asosida shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur jarayon diagnostik-motivatsion, tahliliy-anglash, faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholash bosqichlari asosida tashkil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 06.10.2020. – № 06/20/6079/1349.

2. Ziyaeva D.S. Socio-psychological aspects of ensuring youth safety in global networks / D.S. Ziyaeva // Society and Management. – 2021. – № 3. – P. 88–94.

3. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action / D.A. Schön. – New York: Basic Books, 1983.

4. Hobbs R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom / R. Hobbs. – Thousand Oaks: Corwin, 2011. – 232 p.

5. Spinello R. Cyberethics: Morality and Law in Cyberspace / R. Spinello. – Moscow: IT-Press, 2006. – 250 p.

RAQAMLI TA’LIM SHAROITIDA O‘QUVCHILARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATI VA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Bozorova O'g'iloy Hikmat qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada raqamli ta’lim muhiti sharoitida o‘quvchilarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirish hamda ularning psixologik xavfsizligini ta’minlash masalalari yoritiladi. Raqamli muhitda kognitiv faollikni oshirish, refleksiv va metakognitiv tafakkurni shakllantirish bilan bir qatorda, axborot texnologiyalaridan ortiqcha foydalanish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan psixologik salbiy holatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bo‘lajak informatika o‘qituvchisining metodik tayyorgarligida kognitiv-kompetensial yondashuv,

Насирова Наргиза Шарофдиновна	ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ	409
М.Х.Лутфиллаев, Лутфиллаев у.М, Хасанов Ш.М.	ОЛИЙ ТАЪЛИМ ФАОЛИЯТИДА СУНИЙ ИНТЕЛЕКТ ЯРАТИШНИНГ МАҚСАД Ва ВАЗИФАЛАРИ	411
Саматов Х.У	РАҚАМЛИ АСРДА УСТОЗ ВА ТАЛАБА ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАР	420
Жаббарова Хабиба Кувандиковна	РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДАГИ ЗАМОНАВИЙ ИСТИҚБОЛЛАРИ	424
Bakieva Fotima Raxmatullaevna	TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR	429
Нодира Намозовна Садуллаева	ЧЕТ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ОҒЗАКИ НУТҚ КЎНИКМАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ	433
Ирода Валиевна	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В МАТЕМАТИКЕ	437
Ганиев Маруфжон Мухаммаджонович	СЛАДКИЕ СЛОВА ДОКТОРА	440
Назарова Нодира Козимжон қизи	ТЕХНОЛОГИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ПОСРЕДСТВОМ ЦИФРОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ	443
Toshtemirov Doniyor Eshbayevich	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QUV JARAYONINI AXBOROTLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	448
Umarov Abdurasul Abduraximovich	Texnika fanlari uchun didaktik materiallarni ishlab chiqishda KOMPAS-3D dasturiy majmuasini qo'llash	451
Usmanova Gulnara Baxadirovna, O‘roqboyeva Dinora Faxriddin qizi	TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	455
Калилаев Даулетияр Бахтиярович	ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УСПЕВАЕМОСТЬ СТУДЕНТОВ: ПРЕИМУЩЕСТВА И ВЫЗОВЫ	459
Насриддинова Шахзода Махмуджоновна	ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	461
Shermuxamedov Raxmatulla Sadikovich	DEVELOPING PROGRAMMING AND MENTAL COMPETENCE OF FUTURE	464
Muxiyatdinova Aynura Muratdinovna	ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNI TA’LIM JARAYONIGA JORIY ETISHNING ZARURATI	470
Bekchonova Shoira Bazarbayevna Saidova Zahro Rahmatullayevna	TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISHNING ZAMONAVIY ISTIQBOLLARI	473

Bekchonova Shoira Bazarbayevna	TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI VOSITALAR VA MATERIALLAR YARATISH TEXNOLOGIYALARI	476
Sh.B.Bekchonova M.E.Inoyatova	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA 5-6 SINFLARDA ADABIYOT FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION METODIKALAR	480
Umarova Zaxro Abduraxim qizi, Rustamova Mavjuda Ismadiyor qizi	SUN'IY INTELLEKT, VR VA AR TEXNOLOGIYALAR	483
Хусан Абдурахимович Умаров	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВЫСШЕГО ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ВАЖНОСТЬ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА	487
Alijonova Dilorom Azamjonovna	MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING KASBIY FAOLIYATGA METODIK TAYYORLASHDA USTOZ-SHOGIRD YONDASHUVIDAN FOYDALANISH	491
Akbarova Ziyoda Qurbonjon qizi	MAXSUS PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARINI KORREKSION MASHG'ULOTLARDA SENSOMOTOR MASHQLAR TIZIMIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLASHNING MAVJUD HOLATI	494
Raxmatullayev Ziyodullo Xabibullayevich	XX ASR BOSHLARIDA MIF VA ROMAN JANRI TABIATI	498
С.Р. Абдалова	O'QUVCHILARDA AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI MAFKURAVIY IMMUNITET VA "RAQAMLI FILTR" KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI	502
Bozorova O'g'iloy Hikmat qizi	RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATI VA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI	505